Fanlar akademiyasi Matematika instituti va Toshkent davlat transport universiteti o’rtasida Memorandum imzolandi

O’zbekiston Respublikasi Prezidentining “Matematika sohasidagi ta’lim sifatini oshirish va ilmiy-tadqiqotlarni rivojlantirish chora-tadbirlari to’g’risida”gi PQ-4708-son qarori ijrosini ta’minlash maqsadida Fanlar akademiyasi V.I.Romanovskiy nomidagi Matematika instituti va Toshkent davlat transport universiteti o’rtasida Memorandum imzolandi.

Mazkur Memorandumda respublikamiz transport ishlab chiqarish korxonalarining texnik-texnologik masalalari yechimini matematik usullar va modellashtirish orqali hal etishga qaratilgan masalalarni birgalikda hal etish, matematika fani o’quv-metodik dasturi mazmun va mohiyatini universitetdagi mavjud sohalarga moslashtirish kabi dolzarb yo’nalishlarda hamkorlik qilish ko’zda tutilgan.